



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 11-fevral

91-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

Bo‘ka tumanida bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-sonli qaroriga asosan, Bo‘ka tuman hokimining 2025-yil 15-yanvardagi 2/4-31-sonli, 2025-yil 16-yanvardagi 2/4-32-sonli xatlari va Kadastr agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi tomonidan 2025 yil 20-yanvarda berilgan 01-04-112-sonli taqdimnomasi hamda taqdim etilgan hujjatlarini ko‘rib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 45¹-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 10-21¹ moddalariga asosan, qaror qilaman:

1. Bo‘ka tuman hokimining 2025-yil 15-yanvardagi 2/4-31-sonli, 2025-yil 16-yanvardagi 2/4-32-sonli xatlari va Kadastr agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi tomonidan 2025-yil 20-yanvarda berilgan 01-04-112-sonli taqdimnomasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bo‘ka tumani hududidagi ilovaga asosan, yer maydonlari davlat zaxira yerlari tarkibiga o‘tkazilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydoni bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydoni hisoblanishini inobatga olib, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

3. Bo‘ka tumani hokimligi ilovada keltirilgan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish maqsadida, belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrorov) tuman hokimligi buyurtmasiga asosan, bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan

yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazishni amaldagi qonunchilikka asosan, belgilangan tartibda amalga oshirsin.

5. Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i (X.Qoraboyev) bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish choralarini ko'rsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i X.Qoraboyev zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev

Toshkent viloyat hokimining
2025-yil 11-fevraldagi
91-10-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Bo'ka tumanida zaxiraga qaytarilayotgan yerlarning manzilli

RO'YXATI

T/R	Hudud nomi	Yerdan foydalanuvchi nomi (Fermar xo'jaligi, MCHJ)	Kontur raqamlari	Zaxiraga qaytarilayotgan maydon (ga)
1	Ulug'bek	Yo'ldosheva Sevara	849	1,17
			850	0,58
			851	2,40
			852	2,10
			853	8,28
			854	2,71
			855	1,79
			856	7,47
			857	3,77
			869	2,65
			867q	1,30
			868	2,88
2	Turkiston	Kulmatov Abduxoliq Agro	8 038	4,39
			8 041	0,84
3	Y.Hojimetov	"TOSHKENT AGRO PILLA" MChJ	3280q	0,72
3	Jami:		15	43,05